



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BUYRUQ DAN KO‘CHIRMA

2022-yil «21» 06

№ 01-158 - son

Chirchiq sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta
maxsus ta‘lim vazirining 2022-yil
13-iyundagi 206-son buyrug‘ining
ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentyabrdagi PF-6309-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2022-yil 13-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarining tanlov yo‘nalishlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 206-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarining tanlov yo‘nalishlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarining dastlabki bosqichini joriy yilning 15-iyulga qadar o‘tkazilishi va talabgorlarni navbatdagi bosqichga joriy yilning 1-avgustigacha tavsiya etishda mazkur buyruq ilovalariga muvofiq tasdiqlangan davlat stipendiyalarining tanlov yo‘nalishlari ro‘yxatlariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlasin.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarining dastlabki bosqichini o‘tkazish, nomzodlarni saralash uchun Tashkiliy qo‘mita tarkibi 1-ilova, nomzodlarni saralashning birinchi bosqichini o‘tkazish uchun Imtihonlar komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- Imtixon komissiyasi raislari (O.N.Nasirov, A.X.Boymurodov, M.A.Yusupova) joriy yilning 10-iyuligacha test savollarini shakllantirsin.

3. Ushbu buyruq ijrosining nazorati prorektor O.E.Ziyadullayevga yuklatilsin.

Rektor v.b.

Ko‘chirma asliga to‘g‘ri



I.O.Xavdarov

nazoratchi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti rektorining 2022-yil « 21 » 06 dagi
01-158 -son buyrug'iga 2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari
tanlovlarining dastlabki bosqichini o'tkazish, nomzodlarni saralash uchun
Imtihonlar komissiya tarkibi**

O'zbekiston tarixi		
1.	Nasirov Otabek Nazirjanovich	-Rais
2.	Togayev Shavkat Xurramovich	-a'zo
3.	Jumayeva Shoira Berdiyorovna	-a'zo
Informatika va informatsion texnologiyalar		
1.	Boymurodov Adxam Xushimqulovich	-Rais
2.	Maxkamov Erkin Musurmanovich	-a'zo
3.	Kuchkarov Shuhrat Faxriddinovich	-a'zo
Xorijiy til		
1.	Yusupova Muhabbat Anatolejevna	-Rais
2.	Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich	-a'zo
3.	Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li	-a'zo

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari
tanlovlarining dastlabki bosqichini o'tkazish, nomzodlarni saralash uchun
Tashkiliy qo'mita tarkibi**

№	F.I.Sh	Lavozimi
1.	G.I.Muxammedov	Rektor, tashkiliy qo'mita raisi
2.	O.E.Ziyadullayev	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini
3.	G.Q.Otamuxamedova	Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, kotib
4.	A.R.Qutlimuratov	Matematika va informatika fakulteti dekani, a'zo
5.	I.U.Tadjibayev	Fizika va kimyo fakulteti dekani, a'zo
6.	A.K.Raximov	Tabiiy fanlar fakulteti dekani, a'zo
7.	J.E.O'sarov	Pedagogika fakulteti dekani, a'zo
8.	R.A.Ikramov	Gumanitar fanlar fakulteti dekani, a'zo
9.	R.Y.Maxamadaliyev	San'atshunoslik fakulteti dekani, a'zo